

Sultonov Vahob Murotovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Jismoniy
madaniyat va sport” kafedrası o‘qituvchisi
e-mail: vaxobsultonov@gmail.com

13-15 YOSHLI O‘SMIRLARNI FUTBOL SPORT TURIGA TANLASHDA YANGICHA USULLARDAN FOYDALANISH

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada innavatsion testlardan foydalanish orqali iqtidorli bolalarni futbolga tanlash uslubini takomillashtirishga oid ma’lumotlar bilan bir qatorda, yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va harakat qobiliyatlarini obyektiv baholashga qaratilgan yangi test me’yorlarini ishlab chiqish, pedagogik, tibbiy-biologik va sosiologik uslublardan foydalangan holda kompleks tadqiqotlar asosida iqtidorli yosh futbolchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga saralash metodikasini takomillashtirish zaruratidan kelib chiqib samarali saralash tizimini tashkil etishning asosiy bosqichlari bo’yicha ilmiy va amaliy tajribalarga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish yo’llari ko’rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:** futbol, informativ testlar, iqtidorli bolalar, mashg‘ulot jarayoni, ta’lim, tarbiya, individual imkoniyatlar, jismoniy-axloqiy tarbiya, kasbiy ko’nikmalar, shaxsiy sifatlar.*

Султонов Ваҳоб Муротович
Преподаватель кафедры «Физическая культура и спорт»
Экономико-педагогического университета
e-mail: vaxobsultonov@gmail.com

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ МЕТОДОВ ОТБОРА ПОДРОСТКОВ 13-15 ЛЕТ ДЛЯ ФУТБОЛА

***Аннотация:** В данной статье, помимо информации о совершенствовании методики отбора талантливых детей для занятий футболом путем использования специальных информативных тестов, разрабатываются новые стандарты тестов, направленные на объективную оценку физического развития, физической подготовленности и двигательных способностей юных школьников. спортсменов, педагогические, медико-биологические и Исходя из необходимости совершенствования методики отбора талантливых юных футболистов на начальный этап подготовки на*

основе комплексного исследования с использованием социологических методов, выделены основные этапы организации эффективной системы отбора. показаны способы проведения исследований на основе научного и практического опыта.

Ключевые слова: футбол, познавательные тесты, одарённые дети, тренировочный процесс, воспитание, тренировка, индивидуальные возможности, физическое и нравственное воспитание, профессиональные навыки, личностные качества.

Sultonov Vahob Murotovich

Teacher of the Department of "Physical Culture and Sports" of the University of Economics and Pedagogy
e-mail: vaxobsultonov@gmail.com

USING NEW METHODS IN SELECTING 13-15 YEAR OLDS FOR FOOTBALL

Abstract: *In this article, in addition to information on improving the method of selecting talented children for football through the use of special informative tests, the development of new test standards aimed at the objective assessment of physical development, physical fitness and movement abilities of young athletes, pedagogical, medical-biological and Based on the need to improve the methodology of selecting talented young football players for the initial training stage on the basis of comprehensive research using sociological methods, the main stages of organizing an effective selection system ways of conducting research based on scientific and practical experiences are shown.*

Key words: *football, informative tests, gifted children, training process, education, training, individual capabilities, physical and moral education, professional skills, personal qualities.*

KIRISH

Futbolga iqtidorli bolalarni saralash bo'yicha keng qamrovli, ilmiy-uslubiy ishlar to'raligicha o'rganilmaganligi, bundan tashqari futbolga bolalarni saralab olish jarayonida jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash, ushbu ko'rsatkichlar yuzasidan doimiy monitoring ko'rsatkichlarining

qayta tahlil etilmasligi futbolga xos qobiliyatlarni aniqlovchi ishonchli, informativ testlarni aniqlash va amaliyotga joriy qilish talabini qo'ymoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan Respublikamiz ta'lim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Futbol sport turi yopiq va ochiq sport maydonlarida ko'plab ommaviy-sport tadbirlarida faol dam olish va hordiq chiqarish vositasi sifatida qo'llaniladi, bu esa kam harakatli turmush tarziga ega odamlar uchun huzur-halovat bag'ishlaydi [5; 200-b., 3; 21-26-b; 6; 28-35-b, 4; 18-23-b].

Yosh futbolchilarni saralash muammolari, umumiy saralash bosqichlari, futbolga saralashning tashkiliy-uslubiy jihatlari, dastlabki saralab olish va seleksiya muammolari yoritilgan. Mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida ko'plab mutaxassislar bolalarni futbol bilan shug'ullanishga saralashda ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini aniqlash va nazorat qilishning yangi shakllari va usullarini izlashga e'tibor qaratishi aniqlandi. Harakat vazifalarini hal qilish qobiliyatini aniqlash, harakat ijodkorligini namoyish etish va uni boshqarish qobiliyati ochib berilishi lozim. Aksariyat hollarda bir martalik nazorat sinovlari taqdim etilgan testlar to'plamini bajarishga tayyor turish istiqbolli imkoniyatlar haqida ma'lumot beradi. Sportchining potensial natijasi esa jismoniy sifatlarning dastlabki rivojlanish darajasidan ko'ra ko'proq maxsus tayyorgarlik jarayonida bu sifatlarning o'sish sur'atiga bog'liq bo'ladi [2; 61-b.].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, bo'lajak futbolchilarni saralab olish va tayyorlash sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o'rganilgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda: ularning o'quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko'nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarlicha to'liq yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz o'tkazgan tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagog kuzatuv, jismoniy tayyorgarlikni pedagogik testlash, pedagogik tajriba, psixofizalogik usullar, hujjatli materiallar tahlil qilish, savol-javob va so'rovnoma, matematik statistika usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning maqsad va vazifalarining amaliy hamda ilmiy asoslanganligi, muallifning dastlabki uslubiy pozitsiyalarining mantiqiyliigi, pedagogik tadqiqotlarning turli usullari yordamida olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, haqiqiy amaliy faoliyatning maqsadli tahlil qilinganligi, gipotezaning aniq nazariy va amaliy natijalar bilan tasdiqlanganligi, natijalarning ishonchliligi empirik ma'lumotlarni olishning fanda qabul qilingan usullaridan, natijalarni qayta ishlashning umume'tirof etilgan statistik usullaridan foydalanganlik va tanlovning kengligi bilan ta'minlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yosh futbolchilarning iqtidorini tashxislashga muhim darajada ta'sir qiluvchi bir qator mezonlar katta ahamiyatga ega. Mezonlarga muayyan qobiliyatlarning sifat-son tavsiflari kiradi. Biroq maksimal to'liq axborotni to'plash texnik jihatdan qiyin. Shu sababli dolzarb ilmiy vazifa boshlang'ich saralash jarayonida kompleks baholashning yetarli minimumini aniqlashdan iborat. Shuningdek, ular sport tayyorgarligi jarayonida o'zgarishlarga uchraydi. Munosabatlar va o'zgaruvchanlik qonuniyatlari saralashda qobiliyatlarni to'g'ri va o'z vaqtida baholashga yo'naltiradi. Sportga saralash texnologiyasini ishlab chiqishda sport mashg'uloti vazifalarini bosqichma-bosqich va yosh futbolchilar boshlang'ich tayyorgarligining yakuniy vazifalarini samarali hal etish maqsadida sportchilarning istiqbolini aniqlash vositalari va usullaridan samarali foydalanilgan holda shug'ullanuvchilar imkoniyatlarini baholash uslublari sifatida uni tushunish boshlang'ich nuqta bo'ldi.

13-15 yoshli futbolchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga saralashda jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun reaksiya vaqti va vaziyatga muvofiq texnik harakatlarda tanlab reaksiya qilish vaqtini baholash mezonlarining nazariy modeli takomillashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

**13-15 yoshli iqtidorli futbolchilarning jismoniy sifatlarini aniqlash
uchun baholash mezonlari nazariy modeli**

Maxsus sifatlar	Maxsus xususiyatlar, qobiliyatlarning namoyon bo'lishi	Mezonlar, testlar, uslubiylar
Tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik	Harakat tezkorligi va reaktivlikni oshirish	Yurib turib 20 m.ga yugurish
	Harakat chaqqonligi va reaktivlikni oshirish	Yuqori startdan 30 m.ga yugurish
	Harakat chidamkorligini oshirish	3x10 m.ga mokisimon yugurish
Tezkor-kuch	Havoda to'p uchun kurashish va zarba berish	6 daqiqalik yugurish
		Turgan joydan balandlikka sakrash
	Harakatda qisqa vaqt ichida to'p uchun kurashish	Turgan joydan uzunlikka sakrash
	To'pni o'yinga kiritish va sherigiga uzatish (maydon o'yinchisi, darvozabon)	Chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish
Oyoqlarning reaksiya vaqti		Bukilgan qo'llarda turnikda osilib turish.
		To'ldirma to'pni (1 kg) ikkala qo'lda bosh orqasidan oldinga otish
	To'pni qabul qilish	Havoda to'pni nazorat qilish (to'p o'ynatish)
	Qisqa vaqt ichida to'pni darvozga tepish va sherigiga uzatish	To'pni o'ng va chap oyoqda uzoqqa tepish
	To'pni his etish, texnik harakatlarda qisqa vaqt ichida to'pni boshqarish	To'pga uch marta tegish bilan 30 m masofaga olib yurish

Yosh futbolchilarni mashg'ulotlarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida saralab olish jarayonida sportchilarning jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, jismoniy sifatlarini rivojlantirishning sensitiv davrini inobatga olgan holda tananing harakat tezligi hamda gavda mushaklarining statik muvozanatini yaxshilashning yosh ko'rsatkichlari hamda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga sportchilarni saralash jarayonida jismoniy sifatning jadallik bilan rivojlanish davrlari ishlab chiqildi.

2-jadval

13-15 yoshdan futbolchilarni saralashda jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun qulay yosh davrlari (Sh.S.Ermatov bo'yicha)

Antropometrik ko'rsatkichlar va jismoniy sifatlar	Yoshi	
	13	15
Tezlik	+	+
Tezkor-kuch sifatleri		+
Kuch		+
Chidamlilik	+	+
Anaerob imkoniyatlar	+	+
Egiluvchanlik	+	+

Koordinasion qobiliyatlar	+	+
Muvozanat saqlash		+

13 yoshdagi futbolchilarning 12 ta jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Yurib turib 20 m yugurishda tajriba guruhida bu ko'rsatkich $3,2 \pm 0,3$ sek, nazorat guruhida $3,4 \pm 0,4$ sek. ni tashkil etdi [$t=2,2$; $P<0,05$]. Startdan 30 m ga yugurishda tajriba guruhida ko'rsatkich $5,8 \pm 0,1$ soniya, nazorat guruhida $6,0 \pm 0,3$ soniyani tashkil etdi [$t=2,17$; $P<0,05$]. Bu ikkita ko'rsatkich bo'yicha statistik farqlar bor. Turgan joydan uzunlikka sakrashda tajriba guruhida natija $134,7 \pm 11,7$ sm, nazorat guruhida $130,5 \pm 12,4$ sm ni tashkil qildi [$t=2,11$; $P<0,05$]. Turgan joydan balandlikka sakrashda tajriba guruhida $24,3 \pm 1,7$ sm, nazorat guruhida esa $22,8 \pm 1,4$ sm. ni tashkil etdi [$t=2,18$; $P<0,05$] va ushbu ko'rsatkichlar orasida statistic ishonchli farqlar aniqlandi. Xususan, 3x10 m mokisimon yugurish shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida $9,7 \pm 0,7$ soniya, nazorat guruhida $10,1 \pm 0,8$ soniya natija qayd etildi [$t=2,15$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida ham statistik ishonchli farqlar borligi aniqlandi. 6 daqiqalik yugurish natijasi tajriba guruhida $711,6 \pm 37,4$ m, nazorat guruhida $698,4 \pm 40,6$ m. ni tashkil etdi, bu tajriba hamda nazorat guruhlari orasida statistic ishonchli farqlarni aniqlab berdi [$t=2,34$; $P<0,05$]. To'ldirma to'pni (1kg) ikkala qo'lda bosh orqasidan oldinga otish testida tajriba guruhida $8,4 \pm 1,2$ m, nazorat guruhida $8,0 \pm 1,5$ m natija qayd qilindi [$t=2,21$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida statistik farqlar aniqlandi. Chalqancha yotgan holda gavgani ko'tarish testida tajriba guruhida $26,7 \pm 1,3$ marta, nazorat guruhida esa $24,2 \pm 1,4$ marta natija qayd etildi [$t=2,17$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar kuzatildi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, futbol vositalari yordamida kasbiy ko'nikmalar hamda qobiliyatlarni hosil qilish va shakllantirish masalalarini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni futbol sport turiga saralab olish biz tomonimizdan tuzib chiqilgan uslublar asosida amalga oshirildi. Bunda nazorat va tajriba guruhlarning o'quv rejalari pedagogik tajriba vazifalariga muvofiq birbiridan farq qiladi.

XULOSA

Yosh futbolchilarni saralash samaradorligini oshirish uchun pedagogik kuzatuv davomida to'p bilan bajariladigan elementlarni o'rgatishda texnik harakatlarga vaziyatga muvofiq tanlab reaksiya qilish vaqtini qisqartirishga qaratilgan mashqlardan foydalanib, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish modeli asosida futbolchilarning tezkor-kuch imkoniyatlarini oshirib borish lozim, bu nafaqat maydonda texnik harakatlarni bajarish tezligini oshirishga, balki aerob imkoniyatlarning o'sishi uchun morfologik bazani yaxshilashga yordam berishi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ro'ziqulov B.B. Turli o'yin amplusiga qarab yosh futbolchilarni antropogenetik mezonlari va jismoniy tayyorgarligi asosida istiqbolini bashoratlash //Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati, 2022. - 64 b.
2. Ermatov Sh.S. Ishonchli va informativ testlardan foydalanish orqali iqtidorli bolalarni futbolga tanlash metodikasini takomillashtirish //Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. - 64 b.
3. Верхошанский Ю.В. На пути к научной теории и методологии спортивной тренировки //Теория и практика физической культуры. - М., 1998. - №2. - С. 21-26.
4. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов в подготовительном периоде. - Ж.: //Фан спортга, 2007. - №3. - С. 18-23.
5. Зациорский В.М. Физические качества спортсмена: Основы теории и методики воспитания /2-е изд. - М.: Физкультура и спорт, 1970. - 200 с.
6. Матвеев Л.П. Модельно-целевой подход к построению спортивной подготовки (статья первая и статья вторая) //Теория и практика физической культуры. - М., 2000. - №3. - С. 28-35, 26-29.
7. Нуримов Р.И., "Футбол назарияси ва услубияти" Тошкент-2019. - Б 70-86.
8. Орджоникидзе З.Г. - Физиология футбола - М., Человек, Олимпия, 2008. - 240 с.